



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературе – Language and literature teaching» (<https://tilvaadabiyot.uz>)

<https://oak.uz/pages/4802>

2023-yil. 6-son

Aleksandr Pushkin
(1799-yil 6-iyun – 1837-yil 10-fevral)





ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Dilshod Kenjayev
Nizomiddin Mahmudov
Nargiza Rahmonqulova
Yorqinjon Odilov
Nasirullo Mirkurbanov
Jabbor Eshonqulov
Valijon Qodirov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
Tolib Enazarov
To'lqin Saydaliyev
Ravshan Jomonov
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Tajixon Sabitova
Salima Jumayeva
Nilufar Namozova
Qayum Baymirov
Manzar Abdulxayrov
Lutfullo Jo'rayev
(bosh muharrir o'rinnbosari)
Alijon Safarov (elektron nashr uchun)
Madina Nuriddinova (elektron nashr uchun)
Latifa Xudayqulova (elektron nashr uchun)
Baro Kadirova (elektron nashr uchun)

Muharrirlar:

Nilufar Namozova
Emma Torosyan
Nargis Bobodjanova

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45, (71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

M U N D A R I J A

TADQIQOT

Rafiqjon Zaripov. O'zbekistonda davlat tili menejmentining lingvistik va huquqiy me'yorlarining nazariy-metodologik asoslari, amaliy manbalari	
Shavkat Mahmadiyev, Abdullayeva Ozoda. Stilistik formulalarga xoslangan o'xshatishlar haqida	6
Dilfuza Shermatova. Oliy ta'lim texnika yo'nalishlari talabalarining til va nutqiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari	8
Feruza Qodirova. Mutaxassisning kasbiy faoliyatdagi nutq madaniyati ko'nikmaları	12
Maftuna To'r'ayev. Kognitiv semantika tilshunoslikning yangi yondashuvi sifatida va uning neologiyadagi roli	14
Iqbol Rustamova. Tilimizda uchraydigan vazifadosh yuklamalarning semantik-uslubiy xususiyatlari.....	16
Dilrabo Quvvatova, Gulhayo Shokirova. "Na'matak" she'rining ontologik tahlili	1
D.Tuxtayeva, M.Baxtiyorova. Etel lilian voynichning "so'na" a sarida bosh qahramonlar dinamikasi	2
Maftuna Annamurodova. Alla janrining bugungi holati (an'ana va yangilanishlar)	23
Mahliyo Elboyeva. O'zbek bolalar adabiyotini o'qitishda steam yondashuvi ..	
Shoira Isayeva. Adabiyot darslarida ruhiyat masalalariga yangicha yondashuv	28
Maksuda Badalova, Mohira Abduvalieva. Ta'lim integratsiyasini ta'minlashda klaster modulining ahamiyati	
Aziza Zaripova. Chet tillarni o'qitishda yangi metod va innovatsion usullar ..	33
Mahbuba Rasulova. Ingliz tilini o'rganuvchilarning nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda qo'llaniladigan usul va usulular tadqiqi	36
Shohsanam Bobojonova. "Axloq" konseptosferasining milliy til xarakterida aks etishi	
Sohiba Hodiyeva. O'zbek tilshunosligida jurnalistikaga oid terminlarning leksikografik talqini muammosi	40
Berdibek Yusupov. Turkiy xalqlar adabiyotida milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasi	
Bobur Xolmaxmatov. Yosh futbolchilarni bolalar va o'smirlar sport maktablariga tanlab olish ishlarni tashkil etish samaradorligi	45
Umar G'oymov. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining refleksiv qobiliyatini shakllantirishda reflektor o'qituvchining o'rni va ahamiyati	
Kumush Raximova. Etnik xususiyatga ega bo'lgan paralingvistik birliklar	49
Dilnavoz Tursunova. Bo'lajak rus tili o'qituvchisini tayyorlashda yangi pedagogik metodlarning amaliy tadqiqi	
Qobil Vohidov. Sheriyat, musiqa -inson ruhining ozig'idir	54
Zulayho Yokubova. O'zbek tilida fonetikasida tovushlar tasnifi	55
Mastura Karimova. Antroponimlarning badiiy matnda alluziv nom sifatida qo'llanilishi	57

Motam allamizning so'ngi jumlalari insonni bir muddat o'ylantirib qo'yadi. Har bir inson bu yorug' dunyoni tark etar ekan, uni qanday hodisalar kutadi hech kim bilmaydi.

Sizga bir uy qurdilar
Eshigi yo'q, tuynugi yo'q,
Sizga bir ot yasarlar
Egari yo'q, uyyani yo'q.
Sizga bir do'n tiktilar
Yoqasi bordir, yoni yo'q, alla-alla.

Masalan, bu jumlalarmizda qabrni bir uyg'a qiyoslaydi, ammo, bu uyni eshigi ham, derazasi ham yo'q. Tobutni bir yog'och otga qiyoslaydi egari ham, oyog'i ham yo'q. Kafanni esa, to'nga (choponga) yoqasi bor ammo yonlari yo'q deb juda chiroyl o'xshatish qilishadi. Har bir inson so'ngi manzilga borar ekan, bu dunyoning yaxshi amallari bilan ketishi kerak, o'shandagina u dunyoning savol-javoblaridan yengil o'tib, u inson uchun jannat eshiklari albatta ochiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda o'zbek xalqi marosimlarida a'za allalari aytilmaydi. O'zbekistonda yashab kelayotgan Turkman xalqi orasida bu janrning tarixi juda qadimiyyidir. A'za allalarini bugungi kunga tanishtirish va ularning shakllanishiga e'tibor qaratish ahamiyatlidir. Ahamiyatlisi esa bu alla aytiganda qabrda yotgan inson ruhi tinch va osuda, hech qanday xavotirsiz mang'u uyquga ketardi degan qarashlar bor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek marosim folklori. Bahodir Sarimsoqov.-Toshkent O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, 1986.
2. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Oxunjon Safarov.-“Musiqा”nashriyoti. Toshkent, 2010.

Mahliyo ELBOYEVA,

*Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti
Ona tili va adabiyot ta'limi kafedrasи o'qituvchisi*

O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTINI O'QITISHDA STEAM YONDASHUVI

Annotatsiya. Ushbu maqolada STEAM yondashuvning paydo bo'lishi uning ta'limgagi ahamiyati va o'zbek bolalar adabiyotini o'rganishda ushbu yondashuvning afzalliklari haqida fikr yuritilgan. STEAM yondashuv bu – bolaning bilim egallashiga, ruhiyatiga ta'siri haqida va bola faqat o'qish bilan cheklanmay uni amaliy ishlardira, topshiriqlarda va bola o'zining fikrashlarida yoritib berishi ko'rsatib berilgan. STEAM texnologiyasi turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Unda bir nechta fanlararo integratsiya ya'ni bog'lanish mavjud bo'ladi, bu esa bolani har tomonlama fikrashga bilim olishga o'rgatadi. Demak, bu yondashuv quyidagi fanlar bilan integratsiyalashgan: tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika fanlari bilan o'zarbo'lgangan holda bolaga badiiy asarni tushuntirishdir.

Kalit so'zlar: STEAM yondashuv, integratsiya, muhandislik, kompetensiya, texnologiya.

Аннотация. В данной статье обсуждаются возникновение паравого подхода, его значение в образовании и преимущества данного подхода в изучение узбекской детской литературы. Паравой подход касается воздействия на знания и психику ребёнка и показано что ребёнок не ограничивается чтением а находит свое отражение в его практической работе заданиях мыслях ребенка. Паравая техника будет направлена на разны иметь несколько межпредметных интеграций которые научат ребенка мыслить комплексно.

Ключевые слова: падход, интеграция, инжиниринг, компитенция, технология

Annotation. This article discusses the emergence of the STEAM approach, its importance in education and the advantages of this approach in studying Uzbek children's literature. it has been shown that it can be illuminated in practical works, assignments and the child's thinking. STEAM technology will be directed to different goals. There will be several interdisciplinary integration, which is connection, which will teach the child to learn to think comprehensively.

Key words: STEAM approach, integration, engineering, competence, technology.

Endilikda shakllanib kelayotgan yosh avlodni ya'ni bolajonlar ma'naviyatini sog'lomlashtirish, ularga bilimlarni tayyor holda emas balki mustaqil fikrashga yo'naltirish va ta'lim jarayonida o'quvchilarni mute ijrochilikdan erkin ishtiroychi darajasiga ko'tarishning yangi-yangi yo'llari qidirilmoqda. [1.Q.Husanboyeva.2022,390] Shu nuqtayi nazardan bolajonlarning tarbiyasida bir xil fikrlaydigan, yagona xulosaga keladigan avlodni shakllantirish o'rniiga ma'naviy sifatlarning yetakchiligi, bola tuyg'ularining injaligi, uning ko'ngil istaklari, ma'naviyat shakllantirishda milliy an'analarga va jahon tan olgan metodlarga tayanib ta'lim-tarbiya berish bugunki kun talabi hisoblanmoqda. Bugungi kun ta'lim tizimimizda ham bolaga yangicha ta'lim-tarbiya berish haqida prezidentimizning bir nechta qaror va farmonlari chiqyapti, shulardan 2019-yilning 29-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston

Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini rivojlantirish to'g'risida" farmoni e'lon qilindi. Farmonda keltirilishicha, 2019–2021-yillar davomida respublikaning har bir hududida bosqichma-bosqich STEAM (fan, texnologiya, injenering, san'at va matematika) yo'nalişlariga ixtisoslashtirilgan "Prezident maktablari"ni tashkil etish vazifasi belgilab qo'yildi. Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali O'zbekiston Respublikasining xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishda STEAM fanlarni va tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlari joriy ettiladi. [2.M.Djakbarova.2021,9] Shuni nazarda tutgan holda bolalar adapiyotida STEAM yondashuvini qanday amalga oshirish to'g'risida mulohaza yuritamiz Bolalar adapiyotining kamoloti uning barcha fanlar bilan chambarchas aloqadorligidadir. Bu uning rang-barang mavzular hisobiga boyib, xilma-xil obrazlar hisobiga to'lishib borishini ta'minlashdan tashqari ma'lum darajada o'ziga xos xususiyatlarini ham belgilab beradi. Buni ayniqsa bolalar adapiyotining boshqa fanlar bilan aloqasi misolida yanada ravshan ko'rshimiz mumkin. Shu sababli ham biz bolalar adapiyoti namunalarini o'qitishda yangicha yondashuv olib kirmoqchimiz bu yondashuv – STEAM yondashuv hisoblanadi. STEAM yo'naliishi bugungi kunda dunyo mamlakatlari metodistlarining eng mashhur yo'naliishi hisoblanadi.

Asosiy qism. Pedagogika fani va amaliyotida turli xil yondashuvlar qo'llaniladi. Og'zaki ko'rgazmali, tanqidiy, izlanuvchan, tizimli, funksional, kompleks, texnologik, muammoli-unsurli, faoliyatli yondashuvlar. Shulardan STEAM yondashuv masalasiga to'xtalamiz. Xo'sh, eng avvalo STEAM so'zining ma'nosiga to'xtalsak. Bu so'z ingliz tilidan olingan bo'lib, quyidagi ma'nolarni bildiradi:

S	T	E	A	M
Science	technology	engineering	art	math
Tabiiy fanlar	texnologiya	muhandislik	San'at	matematika

STEAM ta'lim yo'naliishi nazariy bilimlar bilan birga amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek yuqoridagi beshta fanni yagona ta'lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan. STEAM yondashuvning asosiy g'oyasi amaliyot nazariy bilimlar singari muhimligidir. Bu yondashuvni bolalar adapiyotiga qo'llashimizdan maqsad, bolajonlarimiz badiiy adapiyotni o'qish bilan birga ya'ni miya bilan o'qish davomida amaliyotni ham barobar olib borishlari bolaga badiiy asarni yanada yaxshiroq anglab yetishiga yordam beradi.

STEAM o'quvchilarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi:

- muammolarni keng qamrovli tushunish;
- ijodiy fikrlash;
- muhandislik yondashuv;
- tanqidiy fikrlash;
- ilmiy metodlarni tushunish va qo'llash;
- dizayn va san'atni tushunish;

Demak, bolajonlar turli xil mavzulardagi asarlarni o'qish va tushunish uchun ongini ham, qo'llarini ham ishlataadi. Fikrlashni, diqqatini yig'ib, xulosa yasashni o'rganadi. Ular olgan bilimlarni o'zları "uqib oladilar". STEAM yondashuvda bolaning amaliy qobiliyatiga e'tibor beriladi. Ular o'zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi. Boshqa bolalar bilan hamkorlik qilishni o'rganadi. Ushbu bilim va ko'nikmalar asosiy ta'lim vazifasini tashkil etadi. Demak, biz STEAM ta'lim yo'naliishini amaliyotda ko'rib chiqamiz. Amaldagi 6-sinf adapiyot darsligida Hojiakbar Shayxovning "Birinchi sinov" asari keltirilgan. [3. 6-sinf adapiyot darslik, 2022,94] Bu hikoyani o'rganishga 4 soat ajratilgan. Birinchi soatda muallif hayoti va ijodi haqida ma'lumot beriladi. "Asarni o'qishga tayyorlanamiz" qismidagi topshiriqlar bilan ishlanadi. Ikkinchi soatda asar matni bilan tanishtiriladi. Uchinchi soatda asar muhokama qilinadi. To'rtinchi soatda esa hikoyaga loyiha beriladi. Xo'sh, endi biz hikoyani STEAM yo'naliishda o'rganishga harakat qilamiz. O'quvchilarni 3 guruhga ajaratamiz va ularni osmon jismlari va hodisalari nomlari bilan nomlaymiz.

1-guruh: "Kamalak".

2-guruh: "Quyosh".

3-guruh: "Koinot" deya nomladik.

"Kamalak" guruhiga quyidagi savollar beriladi:

osmonda sodir bo'ladigan voqeа hodisalarni yozish;
rasmlarini chizish;

O'quvchilarga kartochkalar tarqatiladi har bir kartochkaga osmonda sodir bo'ladigan voqeа hodisalarni nomlari va tasvirlarini ya'ni rasmlarini chizib berishadi.

“Quyosh” guruhiga quyidagi savollar beriladi:

- sayyoralar nomlarini yozish;
- suratlarini chizish kerakligi topshirig'i beriladi.


“Koinot” guruhiga quyidagi savollar beriladi:

- osmon jismlari nomlarini yozish;
- tasvirlarini chizish;


Yuqoridagi topshiriqni bajarish jarayonida bolajonlar geografiya fanidan olgan bilimlariga tayanishadi. Masalan, o'quvchi osmon jismlaridan: oy, yulduz, quyosh nomlarini yozib ularni tasvirlaydi ya'ni rasmini chizishadi. Bunda bolaning tasavvuri va fikrlash doirasini kengaytirishga yordam beradi. Keyingi topshiriq, ularga “Birinchi sinov” asari yuzasidan rasmlar beriladi va rasmlar asosida quyidagi savollarga javob berishlari kerak bo'ladi:

- rasmda qanday tasvir aks etganligini aytish;
- rasmda berilgan shaxs, narsa yoki voqeа hodisaga izoh berish;
- rasmda tasvirlangan kasb va joyga izoh berish.

Masalan, ularga quyidagi rasmlarni berish tavsiya etiladi:



O'quvchilar bu suratlar bilan hikoyani bog'lashadi. Ya'ni hikoyaning qaysi qismi suratdagi rasmlarga tushishini izohlashadi. Bolalar hikoya bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajarib bo'lishgach, bolalarning diqqati bo'linishi mumkin. Buni sezgan o'qituvchi darrov ularni hikoyaga qayta jalb uchun boshqa bir mashg'ulot o'tkazishga to'g'ri keladi. Ularga bittadan oq qog'oz berib chiqamiz. Har bir guruhga o'z fazoviy kemalarini yasashni topshiramiz.



Har bir bola yoki guruh o'z kemalarini yasashadi. Bu jarayon esa ularning diqqatini yana qayta dars jarayoniga jalb etadi.

O'quvchilar hikoyani o'qib, tahlil qilib, hikoyaga oid bir nechta topshiriqlarni ham bajarib bo'lishdi. Endi ularga quyidagi topshiriqni beramiz:

hikoyadagi sizga notanish bo'lgan so'zlarni sanab chiqing;

hikoyadagi ilmiy atamalarga oid so'zlarni sanab chiqing;

hikoyadagi umumiy so'zlarining necha foizini notanish so'zlar tashkil qilishini hisoblang;

hikoyadagi umumiy so'zlarining necha foizini ilmiy atamalar tashkil qilishini hisoblang.

6-sinf adabiyot darsligida berilgan Hojiakbar Shayxovning “Bir kunlik sinov” asarini STEAM yondashuv asosida o'rganish, o'quvchida barcha fanlardan olgan bilim va malakalariga tayanishni har tomonlama bilimga ega bo'lish kerakligini o'rgatadi.

Xulosa o'mida shuni aytish kerakki, bugungi paytda STEAM yondashuv asosida ta'llim jarayonini tashkil qilish bolalarda nazariy, ya'ni aqliy mehnatni amaliy ko'nikma va malakalar asosida rivojlantirish, ularda olamni anglash, bilish va fanlar o'rtaсиda o'zaro integratsiyani, bog'liqlikni tushunishga yo'naltiriladi. Yana shuni aytish lozimki, STEAM yondashuv bu faqat beshta: tabiiy fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikaning integratsiyasi emas, balki har bir mavzuga yondashgan holda muayyan fan bilan boshqa fan doirasidagi bilimlarning kesishgan nuqtasi. Bu yo'nalish bolalarda fanga qiziqish va o'z qiziqishlari asosida fan yuzasidan bilimlarni oson, sodda o'zlashtirishga bolani ijodiy fikrlashga o'rgatadi. Zero bugungi kun bolajonlari har tomonlama yetuk va barkamol bo'lib ulg'ayishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-som Farmoni.
2. Djenis Van Kliv. STEAM fanlar blikidagi fanlar kesimida 200ta tajriba. Qo'llanma. –Moskva, 1995.
3. Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: "Innovatsiya-Ziyo", 2022. 394-bet.
4. M.Djakbarova. Ona tili ta'lmini o'qitishda STEAM yondashuv. 2021. 9-bet.
5. Umumiy o'rta ta'lim maktabalarining 6-sinfi uchun adabiyot darslik. – T.: Yangi nashr, 2022. 217-bet.

Shoira ISAYEVA,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

ADABIYOT DARSLARIDA RUHIYAT MASALARIGA YANGICHA YONDASHUV

Annotatsiya. Mazkur maqola o'zbek adabiyoti fanida ruhiyat masalalariga yangicha yondashivi masalalariga bag'ishланган. Maqolaning kirish qismida mavzuning nazariy masalalari yoritilgan. Undada ruhiyat masalalarining o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, mavzuga doir nazariy, ilmiy qarashlar o'z aksini topgan. Maqolada mavzuni o'qitishning pedagogik asoslari, ya'ni mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni o'tishda ruhiyat masalalari tahlili yuzasidan topshiriqlar, amaliy mashg'ulotning metodik ta'minoti haqida mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: adabiyot, ruhiyat, yondashuv, badiiy asar, yuqori samara, uslub, mahorat, ijodkor.

Annotation. This article is devoted to the issues of a new approach to psychological issues in the science of Uzbek literature. The introduction of the article covers the theoretical issues of the topic. It reflects the specific characteristics of psychological issues, as well as theoretical and scientific views on the subject. The article provides comments on the pedagogical foundations of teaching the subject, that is, assignments on the analysis of psychological issues during practical training on the subject, methodological support of practical training.

Keywords: Literature, mentality, approach, artistic work, high efficiency, style, skill, creator.

Аннотация. Данная статья посвящена вопросам нового подхода к психологическим проблемам в науке об узбекской литературе. Во введении статьи освещены теоретические вопросы темы. Он отражает специфику психологических проблем, а также теоретические и научные взгляды на предмет. В статье даны комментарии к педагогическим основам преподавания предмета, то есть задания по анализу психологических вопросов при практических занятиях по предмету, методическое обеспечение практических занятий.

Ключевые слова: Литература, менталитет, подход, художественное произведение, высокая продуктивность, стиль, мастерство, творец.

Badiiy adabiyotda ruhiyat tahlili badiiylikning asosiyo ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u asarga jon ato etadi. Ruhiyat tahlili muallifning uslubini, tasvirda o'ziga xosligini va badiiy mahoratini belgilaydi. Adabiyotning kamolotni, uning buyukligi, eng avvalo, ruhiyat tahlilidek badiiy-estetik hodisaning qay darajada kashf etilganligi bilan, inson ruhi, inson qalbi dialektikasining qay darajada ochilganligi bilan belgilanadi.

O'zining mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'lini tanlagan O'zbekiston Respublikasida ta'limg-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalash ishlari Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan ekanligi barchamizga ma'lum.

Maqolaning maqsadi – o'zbek adabiyoti darslarida ruhiyat masalalariga yangicha yondashuv tahlilidan samarali foydalanish yo'llarini o'rganish.

Maqola orqali biz quyidagi vazifalar, muammolarga yechim topishga harakat qildik:

– o'zbek adabiyoti darslarida ruhiyat masalalariga yangicha yondoshuvlar tahlilidan foydalanish kabi masalalarni tadqiq qilish;

o'zbek adabiyoti darslarida ruhiyat masalalariga yangicha yondoshuv tahlilining ahamiyati va imkoniyatlarini o'rganish;

o'zbek adabiyoti darslarida ruhiyat masalalariga yangicha yondoshuv tahlilidan metodik ta'minot yaratish (sillabus, texnologik xarita, amaliy mashg'ulot materiallari).

Akademik Izzat Sulton adabiyotda inson tasviri masalasida shunday deydi: "Odam adabiyotning tasvir predmetidir. Odam tasviri yo'q joyda badiiy adabiyot yo'q, shu bilan birga "odam tasviri" demak – boricha odamning ichki dunyosi, uning kechinmalari tasviri demakdir". Ushbu nazariy ma'lumotlarning badiiy asardagi amaliy ifodasini biz Pirimqul Qodirovning "Xumoyun va Akbar" romanida ko'ramiz. Yozuvchi romanda ruhiy tahlil san'atidan o'ziga xos tarzda mahorat bilan foydalangan. U asar qahramonlarining ichki olamini turli poetik vositalar orqali ochib berar ekan, ushbu badiiy tasvirlar asar g'oyasini ochishga, undagi badiiy mantiqni rivojlantirishga, asarning ta'sirchanligini oshirishga yo'naltiriladi. Bu borada yozuvchi ruhiy tahlilning poetik vositasi sifatida tush epizodidan